

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

4-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 4 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIY YANGILANISH	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIY YUKSALISH UYG'UNLIGI	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI	86-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025)	91-100
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O'ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO'RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI	101-107
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	108-113
<i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	114-118
<i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI	119-135
<i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI	136-140
<i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL	141-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR.....	155-165
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOIIY ADOLATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	166-175
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG'ONIY TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR	176-181
<i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA'SIRI.....	182-188
<i>Xolova Umida Umedovna</i> "O'RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA'RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI"	189-192
<i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE"	193-197
<i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI.....	198-202
<i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI..	203-210

Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI:
FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB
TALQINLARI..... 211-215

Rustamova Madina
OMMAVIY MANIPULYATSIIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI:
TAHDIDLAR VA OQIBATLAR..... 216-220

Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING
TRANSFORMATSIIYASI..... 221-225

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING
GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI 226-232

Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING
LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL 233-241

Quvvatova Shaxlo Choriyevna
XOLID HUSAYNIYNING “MING QUYOSH SHU'LASI” ASARI TAHLILI..... 242-246

Elmuratova Zamira Xodjamuratovna
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI..... 247-251

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Shayzakov Shodiyor Ibragimovich
QONUNIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUJJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA
TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI..... 252-261

Umarova Xolisxon Nomoz qizi
O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK
UCHUN JAVOBGARLIK DAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... 262-269

Аминова Наргиза
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ:
МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО
В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ 270-277

Amirov Agzamxon Aktamovich
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI..... 278-283

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI:
ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI..... 284-294

Kabilov Sardor Asrolovich
JINOIY JAVOBGARLIK DAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI 295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH	301-304
<i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOY ASOSLARI	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

Received: 16 March 2026

Accepted: 01 April 2026

Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

THE PROBLEM OF NOUMENAL FREEDOM IN IMMANUEL KANT AND CONTEMPORARY PHILOSOPHY: CURRENT INTERPRETATIONS OF THE ANTINOMIC CONTRADICTION WITH PHENOMENAL DETERMINISM

Djomuradov Ikrom Ilkhom oglu

University of Economics and Pedagogy

Assistant Professor, Department of History and Social Sciences

Abstract. The article examines the problem of noumenal freedom in Immanuel Kant's philosophy and its current interpretations in modern philosophy in the context of the antinomic contradiction with phenomenal determinism. Kant's mechanism for resolving the conflict between freedom and necessity through transcendental idealism is analyzed. Contemporary interpretations (Korsgaard, Abaci, Stang, and others) explore the connection of noumenal freedom to issues of moral responsibility, philosophy of mind, and determinism. The article is based on Kant's key works and recent research, emphasizing the practical significance of noumenal freedom.

Keywords: Immanuel Kant, noumenal freedom, phenomenal determinism, third antinomy, transcendental idealism, moral responsibility, contemporary philosophy.

IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI: FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB TALQINLARI

Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

"Tarix va ijtimoiy fanlar" kafedrasida assistenti.

E-mail: jomuradovikrom@gmail.com

<http://www.orcid.org/0009-0001-8897-1201>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Immanuil Kant falsafasida noumenal erkinlik muammosi va uning fenomenal determinizm bilan bog'liq uchinchi antinomiyasi zamonaviy falsafadagi dolzarb talqinlari tahlil qilinadi. Kantning transsendental idealizmi orqali erkinlik va zaruriyat ziddiyatini hal qilish mexanizmi ko'rib chiqiladi. Zamonaviy talqinlarda (Korsgaard, Abaci, Stang va boshqalar) noumenal erkinlikning axloqiy mas'uliyat, ong falsafasi va determinizm muammolari bilan bog'liqligi o'rganiladi. Maqola Kantning asosiy asarlari va hozirgi tadqiqotlar asosida tuzilgan bo'lib, noumenal erkinlikning amaliy ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Immanuil Kant, noumenal erkinlik, fenomenal determinizm, uchinchi antinomiya, transsendental idealizm, axloqiy mas'uliyat, zamonaviy falsafa.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N29>

Kirish. Immanuil Kant (1724–1804) falsafasi G'arb falsafasining burilish nuqtasi bo'lib, bilimning chegaralari, aqlning antinomialari va inson erkinligi muammolarini chuqur tahlil qilgan. Uning "Sof aql tanqidi" (1781-1787) asarida taqdim etilgan uchinchi antinomiya – erkinlik (transsendental sababiyat) va tabiat qonunlariga bo'ysunuvchi determinizm o'rtasidagi ziddiyat – noumenal erkinlik muammosining markazida turadi. Kant bo'yicha, fenomenal dunyo (bizning tajribamizdagi hodisalar) sabab-natija zanjiri bilan to'la

deterministik bo'lsa-da, noumenal dunyo (narsalar o'zi) erkinlikka imkon beradi. Bu farq insonning axloqiy mas'uliyatini saqlab qolish uchun zarur[1].

Zamonaviy falsafada bu muammo dolzarb bo'lib qolmoqda. Neyrofan, kvant mexanikasi va sun'iy intellekt rivoji determinizmni kuchaytirgan bir paytda, Kantning noumenal erkinligi axloqiy agentlikni himoya qilishning asosiy vositasi sifatida qaralmoqda. Maqola Kantning antinomik ziddiyatini va uning hozirgi talqinlarini (masalan, Uygur Abaci va Nikolas Stangning modal antinomiya tahlili) o'rganadi. Maqsad – noumenal erkinlikning zamonaviy axloq va ong falsafasidagi o'rnini aniqlashdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kantning asosiy asarlaridan biri “Sof aql tanqidi”da uchinchi antinomiya erkinlik tezisini (sababiyat erkinligi orqali, ya'ni mutlaq o'z-o'zidan boshlanuvchi harakat va spontanlik) va determinizm antitezisini (hamma narsa tabiat qonunlari bo'yicha zaruriyat asosida sodir bo'ladi) taqdim etadi. Kantning yechimi transsendental idealizmga yotadi: fenomenlar (hodisalar dunyosi) deterministik tabiat qonunlariga bo'ysunadi, noumenlar (o'z-o'zidan mavjud narsalar) esa erkinlikka ega bo'lishi mumkin. “Amaliy aql tanqidi” (1788) da bu erkinlik axloqiy qonun bilan bog'lanadi – “o'zini o'zi belgilash” (avtonomiya) prinsipi orqali, ya'ni irodaning o'z qonunini o'zi yaratishi va unga bo'ysunishi nazarda tutiladi[2]. Bundan tashqari, “Axloq metafizikasining asoslari” (1785) asarida avtonomiya va kategorik imperativning erkinlik bilan bog'liqligi chuqur yoritilgan, “Mulohaza quvvati tanqidi” (1790) ning 76-paragrafida esa modal antinomi (noumenlar modal xossalarga – mumkinlik, zaruriyat – ega emasligi) masalasi ko'tarilgan bo'lib, bu erkinlik nazariyasiga qo'shimcha ziddiyat keltirib chiqaradi. “Din sof aql chegaralarida” (1793) da radikal yovuzlik va erkin tanlovning axloqiy javobgarlik bilan bog'liqligi tahlil qilinadi.

Zamonaviy adabiyotlarda Genri E. Allison “Noumenal erkinlik va Kantning modal antinomiya” nomli maqolasida Kantning ikki xarakter nazariyasini (tajribaviy va aqliy xarakter) chuqur tahlil qilgan: tajribaviy xarakter fenomenal determinizmga bo'ysunadi, aqliy xarakter esa noumenal erkinlikni ta'minlaydi. U “Birlashtirish tezisi” va “O'zaro bog'lanish tezisi” kabi tushunchalarni ilgari surib, erkinlikni oqilona agentlikning ajralmas qismi sifatida ko'rsatadi.[3]. Kristin Korsgaard (“Normativlik manbalari”, 1996) erkinlikni amaliy aqlning spontanligi va normativlik manbai sifatida talqin qiladi, noumenal ramkani saqlab qolgan holda uni zamonaviy axloq falsafasiga moslashtiradi. Uygur Abaci (2022) “Noumenal erkinlik va Kantning modal antinomiya” maqolasida Kantning modal tezisiga (noumenlar modal xossalarga ega emas, chunki ilohiy intuitiv aql uchun mumkinlik va haqiqat farqi yo'q) va erkinlik talabiga (noumenal iroda boshqacha tanlov qilishi mumkin) ziddlikni ko'rsatib, bu antinomiyaning amaliy aqlning tartibga soluvchi prinsipi orqali hal qilishni taklif etadi. Nikolas Stang (2016) “Kantning modal metafizikasi” asarida shunga o'xshash modal antinomiya muammosini ko'tarib, noumenal erkinlik va “majburiyat imkoniyatni talab qiladi” prinsipini modal metafizika nuqtai nazaridan tahlil qiladi.

Qo'shimcha ravishda, Allen Vud Kantning erkinlik va determinizm moslashuvchanligini himoya qilib, noumenal erkinlikni axloqiy javobgarlikning asosi sifatida ko'rsatadi[4]. Pol Gayer (“Kant erkinlik, qonun va baxt haqida”, 2000) erkinlik, qonun va baxt o'rtasidagi munosabatni o'rganib, Kantning liberalizmini zamonaviy muammolarga nisbatan qayta talqin qiladi. Karl Ameriks (“Kant va avtonomiyaning taqdiri”, 2000) avtonomiya taqdirini va noumenal ramkaning mustahkamligini tahlil qiladi[5]. Erik Uotkins Kantning sababiyat metafizikasini chuqur o'rganib, erkinlik va tabiat qonunlari o'rtasidagi ziddiyatni hal qilishda transsendental

idealizmning rolini ta'kidlaydi. Ouen Uer (2022) Kantning erkinlik taqdirini 1788–1800 yillar oralig'ida ko'rib chiqib, amaliy aqlning erkinlikni “subyektiv e'tiqod” (Glaube) sifatida saqlashini ko'rsatadi.

Rossiya falsafasida N.A. Chernyak (2015 va keyingi ishlari, masalan, 2021 “Yana bir bor erkin iroda haqida”) Kantning erkinlik asosini noumenal dunyo orqali ko'rsatib, uni axloqiy javobgarlik va iroda muammolari bilan bog'laydi. O'zbekiston falsafasida esa Ikrom Jomuradovning “Immanuel Kant falsafasida noumenal erkinlik va fenomenal determinizmning antinomik tabiati” (2026) maqolasi transsendental kontekstda chuqur tahlil olib boradi: uchinchi antinomiyaning tarixiy-falsafiy rekonstruksiya, matnshunoslik va qiyosiy metodlar bilan yoritib, zamonaviy tanqidiy adabiyot (Allison, Abacı, Stang) bilan solishtiradi. Bu O'zbekistonda Kantshunoslikning yangi bosqichi hisoblanadi va mahalliy tadqiqotlar (masalan, N.A. Tursunkulovning erkinlik g'oyasi haqidagi ishlari) bilan birgalikda mintaqaviy hissani ta'minlaydi.

Qiyosiy-tarixiy tahlil (Kantning asl matnlarini zamonaviy talqinlar bilan solishtirish), germeneytik o'qish (Kant matnlarini kontekstual talqin qilish va ichki ziddiyatlarni ochish), sintetik yondashuv (zamonaviy nazariyalar – modal metafizika, axloqiy normativlik – bilan bog'lash) va tanqidiy baholash. Maqola Kantning asl matnlariga (Akademiya nashri) asoslanib, ikkilamchi manbalarni (Allison, Korsgaard, Abacı va boshqalar) tanqidiy baholaydi, ularning kuchli tomonlarini (masalan, Allisonning ikki xarakter nazariyasi) va cheklovlarini (modal antinomiya muammolari) ko'rsatadi. Bu yondashuv antinomiyaning transsendental yechimini nafaqat tarixiy, balki zamonaviy dolzarbligini ta'kidlaydi.

Ushbu adabiyotlar bazasi Kantning erkinlik nazariyasini to'liqroq ochib beradi va tadqiqotning o'ziga xos hissasini (noumenal erkinlik va modal antinomiyaning transsendental konteksti) aniq belgilaydi.

Muhokama. Kantning uchinchi antinomiyasi: tezis – “dunyoda erkinlik orqali sababiyat mavjud” antitezis – “hamma narsa tabiat mexanizmi bo'yicha” mavjud. Ziddiyat aqlning cheksiz regress talabidan kelib chiqadi. Yechim: transsendental idealizm – vaqt va fazo subyektiv, shuning uchun fenomenal dunyo deterministik (sababiyat kategoriyasi qo'llaniladi), noumenal dunyo esa erkin (sababiyat tushunchasi chegaradan tashqarida). Inson ikki xarakterga ega: empirik (deterministik harakatlar) va intelligibel (noumenal erkinlik). Har bir noqonuniy harakat uchun “men buni qilmasligim mumkin edi” deyish mumkin.

Zamonaviy talqinlarda bu yechim tanqid qilinadi. Abacı va Stang modal antinomiyaning ko'taradi: Kant noumenalarni modal xossasiz (imkoniyat, zaruriyat yo'q) deb hisoblaydi, ammo “kerak bo'lsa, qila olaman” (ought implies can) prinsipi noumenal erkinlik uchun kontingentlik (boshqacha qilish mumkinligi) talab qiladi.

Korsgaardning konstruktivizmi noumenal erkinlikni amaliy aqlning o'zini o'zi qurishi sifatida saqlaydi: biz agent bo'lganimiz uchun Kant prinsipiga qabul qilishga majburmiz. Neyrofan (Libet tajribalari) determinizmni kuchaytirsa-da, Kantning farqi empirik ongni noumenal agentlikdan ajratib, mas'uliyatni saqlaydi. Zamonaviy determinizm (kvant indeterminizm yoki kompatibilizm – Dennett) Kantni yangicha o'qishga imkon beradi: erkinlik determinizm ichida emas, uning noumenal asosida.

O'zbek va rus falsafasida (V.V. Vasilyev, L.K. Petrosyan) noumenal erkinlik axloqiy qonun va mas'uliyatning asosi sifatida ko'riladi. Antinomiya zamonaviy muammolarga (sun'iy intellektning “erkinligi”, bioetika) mos keladi.

Natijalar. Immanuel Kantning noumenal erkinligi fenomenal determinizm bilan zid emas, balki uni to'ldiradi va o'zaro uyg'unlashadi. Kantning "Sof aql tanqidi" asaridagi Uchinchi antinomiysida ta'kidlanganidek, fenomenal olamda (hodisalar dunyosida) barcha voqealar sabab-natija zanjiri bilan qat'iy belgilangan bo'lib, tabiiy qonunlarga bo'ysunadi. Biroq noumenal olamda (o'z-o'zidan mavjud narsalar olamida) insonning transsendental erkinligi – ya'ni mutlaq o'z-o'zidan boshlanuvchi harakat va spontanlik – saqlanib qoladi. Bu ikki daraja o'rtasidagi tafovut Kantning transsendental idealizmi asosida izohlanadi: vaqt, makon va sababiyat faqat tajribaviy (fenomenal) dunyoga xos xususiyatlar bo'lib, noumenal olamda ular amal qilmaydi. Shunday qilib, erkinlik va determinizm bir-birini inkor etmaydi, aksincha, erkinlik determinizmning chegarasini belgilab, axloqiy harakatlar uchun zaruriy asosni yaratadi.

Zamonaviy talqinlar bu klassik yechimni yanada chuqurlashtirib, modal va amaliy jihatdan boyitadi, ammo shu bilan birga ba'zi ziddiyatlarni, xususan modal antinominiyani ochib beradi. Nikolas Stang (2016) o'zining "Kantning modal metafizikasi" asarida noumenal amodalizm tushunchasini – ya'ni noumenalarda modal xossalarning (imkoniyat, zaruriyat, tasodifiylik) yo'qligini – Kantning "Hukm quvvati tanqidi"ning 76-paragrafidan kelib chiqib, erkinlik nazariyasiga qarama-qarshi qo'yadi. Stangning fikricha, "majburiyat imkoniyatni talab qiladi" prinsipi va Uchinchi antinomiyni yechimi noumenal iroda uchun "boshqa yo'lni tanlash imkoniyati" modal xossasini talab etadi, biroq noumenal amodalizm bu xossani rad etadi. Bu holat modal antinominiyani keltirib chiqaradi va Kantning erkinlik nazariyasiga jiddiy tahdid soladi. Uygur Abacı (2022) esa "Noumenal erkinlik va Kantning modal antinomiyasi" maqolasida Stang va Mark Kohlning takliflarini tanqid qilib, muqobil yechimni ilgari suradi: noumenal irodalarni modalizatsiya qilish faqat amaliy aqlning tartibga soluvchi prinsipi sifatida, ya'ni axloqiy mas'uliyatni baholash jarayonida qo'llaniladi, lekin noumenal voqelikning o'zida modal xossalarni tasvirlamaydi. Shu tariqa Abacı antinominiyani nazariy darajada hal qiladi va erkinlikni saqlab qoladi.

Christine Korsgaardning Kant konstruktivizmi esa bu yechimni amaliy jihatdan yanada mustahkamlaydi. Korsgaard "Normativlik manbalari" (1996) va boshqa asarlarida ikki nuqtai nazar modelini rivojlantirib, nazariy aql nuqtai nazaridan harakatlar determinizmga bo'ysunishi mumkinligini tan oladi, ammo amaliy aql nuqtai nazaridan inson o'zini erkin agent sifatida ko'radi va o'z harakatlarini o'z qonuni asosida belgilaydi. Bu nuqtai nazar erkinlikni konstitutiv (tashkil etuvchi) qiladi: harakat qilishning o'zi erkinlik va axloqiy majburiyatni talab etadi. Korsgaardning talqini modal antinominiyani amaliy kontekstda yumshatadi va erkinlikni faqat nazariy-metafizik emas, balki amaliy-agentlik darajasida asoslaydi.

Natijada, noumenal erkinlik axloqiy agentlikning asosiy sharti bo'lib qoladi va zamonaviy determinizm oldida – fizika, neyrobiologiya va kognitiv fanlardagi qat'iy determinizm nazariyalariga qaramay – o'z dolzarbligini saqlab qoladi. Zamonaviy ilm-fan fenomenal olamning qonuniyatlarini chuqurlashtirgan bo'lsa-da, noumenal erkinlikning transsendental xarakteri uni himoya qiladi va insonning axloqiy mas'uliyatini saqlashga yordam beradi. Bu yondashuv nafaqat Kantning axloqiy falsafasini zamonaviylashtiradi, balki axloqiy agentlikning metafizik asoslarini mustahkamlab, insoniyatning o'zini o'zi boshqarish qobiliyatiga bo'lgan ishonchni oshiradi. Shunday qilib, Kantning noumenal erkinligi nafaqat o'tmishdagi yechim, balki hozirgi zamonning axloqiy va metafizik muammolariga ham javob beruvchi kuchli konsepsiyadir.

Xulosa. Immanuil Kantning noumenal erkinlik muammosi fenomenal determinizm antinomiyasini transsendental idealizm orqali muvaffaqiyatli hal qilgan holda, zamonaviy falsafada axloq, ong va erkinlik muhokamalarining markaziy o'rnini egallab turibdi. Kantning bu yechimi nafaqat o'z davrining metafizik ziddiyatlarini bartaraf etdi, balki bugungi kunda ham axloqiy agentlik, inson mas'uliyati va erkin iroda masalalarini chuqur anglash uchun mustahkam asos bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy talqinlar Kantning noumenal erkinligi dolzarbligini yanada tasdiqlaydi: erkinlik noumenal darajada – ya'ni tajribadan mustaqil, aqliy va o'z-o'zidan boshlanuvchi darajada – saqlanib qoladi hamda empirik dunyoda, ya'ni hodisalar olamida insonning axloqiy mas'uliyatini ta'minlaydi. Bu yondashuv neyrobiologiya, fizika va kognitiv fanlar tomonidan ilgari surilayotgan qat'iy determinizm oldida ham o'z kuchini yo'qotmaydi, chunki Kant bo'yicha determinizm faqat fenomenal darajaga tegishli bo'lib, noumenal erkinlikka zid kelmaydi. Aksincha, u axloqiy harakat va mas'uliyat uchun zaruriy shart yaratadi.

Kelajakdagi tadqiqotlar noumenal erkinlik kontseptsiyasini neyro falsafa (neurophilosophy) va sun'iy intellekt (artificial intelligence) sohalari bilan yaqinroq bog'lashga qaratilishi lozim. Masalan, miya faoliyati va qaror qabul qilish jarayonlaridagi neyron mexanizmlar noumenal erkinlik g'oyasini qanday izohlaydi? Sun'iy intellekt tizimlarida esa "erkin" qaror qabul qilish, axloqiy agentlik va mas'uliyat masalalari Kantning ikki darajali (fenomenal va noumenal) modeliga asoslanib o'rganilishi mumkin. Bunday tadqiqotlar Kant falsafasini zamonaviy texnologik va ilmiy muammolarga moslashtirishga yordam beradi.

Umuman olganda, Kant falsafasi bugungi kunda ham insoniyatga erkin va mas'uliyatli bo'lish yo'lini ko'rsatuvchi muhim yo'l-yo'riq bo'lib qolmoqda. Uning noumenal erkinlik tushunchasi nafaqat o'tmishdagi antinomiyani yechish vositasi, balki kelajakdagi axloqiy va metafizik muammolarga ham javob beruvchi kuchli falsafiy merosdir. Kant ta'limotiga murojaat qilish orqali biz zamonaviy dunyoda inson qadr-qimmatini, erkin tanlov va axloqiy javobgarlikni saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Kant I. Sof aql tanqidi (Kritik der reinen Vernunft). – Riga: Hartknoch nashriyoti, 2009.356-b.
2. Kant I. Amaliy aql tanqidi (Kritik der praktischen Vernunft). – Riga, 2016.97-p
3. Allison H. Kantning erkinlik nazariyasi (Kant's Theory of Freedom). – Kembrij: Cambridge University Press, 1990.75-p.
4. Wood A. Kantning axloqiy dini (Kant's Moral Religion). – Itaka: Cornell University Press, 1970.56-p
5. Ameriks K. Kant va avtonomiya taqdiri (Kant and the Fate of Autonomy). – Kembrij: Cambridge University Press, 2000.41-p.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).